Abonementlar va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish xizmati rahbarining

Vazifalari

-Xizmatda tashkiliy rahbarlik qilishni amalga oshiradi:

- foydalanuvchilarga yuqori darajada axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni, talabnomalarni tezkor bajarishni ta’minlaydi va takomillashtiradi;

- Markazning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalari uchun xizmat jarayonidan kelib chiqib beriladigan ma’lumotlarni tekshirib beradi.
- Markazdagi murakkab ish qismini mustaqil ravishda boshqaradi;
- Markazning istiqbolli, yillik va chorak rejalarini ishlab chiqadi va xizmatda bajarilgan ishlar hisobotini tuzadi.
- Markazning boshqa xizmatlari bilan tezkor va sifatli axborot- kutubxona xizmatini ko‘rsatishni muvofiqlashtiradi, xizmat xodimlarining malakasini hisobga olgan holda majburiyatlarni taqsimlaydi;
- xizmat ishining eng murakkab qismini boshqaradi;
- xizmatning reglamentga soluvchi, texnologik hujjatlarini tuzadi va qayta ishlab chiqadi, hujjatlar bilan ishlash va ish yuritishni ta’minlaydi;
- yordamchi fondni to‘ldirish va saqlash bo‘yicha tartibga soluvchi hujjatlarni tuzadi va qo‘shimchalar kiritib boradi;
- joylarda ko‘chma kutubxonalar tashkil qilish uchun xodimlar ish rejasini tasdiqlash;
- xodimlarning malakasini oshirish maqsadida xizmat uchrashuvlari, ma’ruzalar va suhbatlarni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida ishtirok etish;
- konferensiya, seminar va xizmat yig‘ilishlarida ishtirok etadi.
- yangi texnologiyalar bo‘yicha ishni tashkil etishda qatnashadi.
- yangi bilimlarni egallash orqali o‘zining kasbiy malakasini muntazam oshirib boradi.
- axborot-kutubxona nashriyotchilik ishi standartlar tizimi (AKNIST) va axborot-kutubxona faoliyati xalqaro standartlarini xizmat ishi amaliyotiga joriy qilish bo‘yicha ishlarini tashkil qiladi;
- xizmat xodimlarining haftalik hisobot yuritishini nazorat qiladi;
- yosh va yangi xodimlarga ish texnologiyalari, usullarini o‘rgatadi;
- qabul qilingan texnologik yechimlarning bajarilishini ta’minlaydi, jamoa oldida bajarilgan ishlar to‘g‘risida hisobot beradi;
- o‘zining kasbiy va madaniy saviyasini oshirib boradi.